

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n.,dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-maydagi kengaytirilgan 5-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 5). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA HARAKATLI O'YINLAR

Ismoilov Turobjon, professor v.b. NamDU
Saribayev Shuhrat, dotsent GulDU
Tuxtaboyeva Burobiyahon, magistr NamDU

Annotatsiya: maqolada yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyati batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy taryyorgarlik, harakatli o'yinlar, pedagogik tajriba.

ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ.

Исмоилов Турабжон, и.о. профессор НамГУ
Сарибаев Шухрат, доцент ГулГУ
Тухтабоева Буробияхон, магистр НамГУ

Аннотация: в данной статье освещены проведение подвижных игр в воспитании молодого поколения

Ключевые слова: физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, подвижные игры, педагогический эксперимент.

THE IMPORTANCE OF OUTDOOR GAMES IN THE UPBRINGING OF A HARMONIOUS YOUNG GENERATION

Ismoilov Turobjon, professor of NamSU
Saribayev Shuhrat, associate professor of GulSU
Tuxtaboyeva Burobiyahon, magistr of NamSU

Annotation: in this article the importance of outdoor games in the upbringing of a harmonious young generation in the teaching process is clarified.

Key words: physical training-healthiness, physical developing, physical readiness, physical training, moving play, pedagogical experience.

Kirish

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda respublikamiz rahbariyati tomonidan boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e'tibor qaratildi. Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi eng ustivor vazifalardan qilib belgilandi.

Mamlakatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi asosan o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom, etuk va baramol insonlar bo'lib ulg'ayishlariga bevosita bog'liqdir. Bu esa Vatanimiz kelajagini yaratuvchisi bo'lgan-farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay va etarli darajada sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Shu boisdan ham mustaqillikka erishilgandan keyin yosh avlodni soglom qilib tarbiyalash masalalariga hukumatimiz rahbariyati tomonidan jiddiy etibor qaratilib kelinmoqda. «Jismoniy tarbiya va sport to'grisida»gi qonun, «Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommallashtirish chora-tadbirlari to'grisida»gi va «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi



O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'grisida»gi farmonlarni qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi [1;2;3].

O'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan soglom, aqlan etuk va har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyatni kattadir. Snu boisdan ham boshlangich sinfiar uchun ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya dasturida harakatli o'yinlar asosiy o'rinni egallaydi.

Bolalar bilan o'tkaziladigan harakatli o'yinlar ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rinni egallab, harakat sifatlarini rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish, organizmni kunlik harakatga bo'lgan ehtiyojini taminlashga ijobiy ta'sir etadi[4].

Boshlangich sinfiarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar bolalar uchun eng qiziqarli tadbirlardan biri bo'lib, organizmning tashqi muhit va xar xil ta'sirlarga chiniqishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Harakatli o'yinlar bolalar organizimini chiniqtirish bilan birga o'zaro yordam, do'stlik, tashkilotchilik, intizom, ma'suliyat burchini his qilish va javobgarlik kabi bir qator fazilatlarni shakillantiradi[5].

Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni jismonan soglom, ruxan tetik va har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashda harakatli o'yinlar ta'limiy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Shu sababdan ham 7-8 yoshli o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida katta tanaffusda harakatli o'yinlarni o'tkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Biz tajriba guruhi o'quvchilari bilan katta tanaffusda bolalarning pedagogik hususiyatlarini hisobga olgan holda harakatli o'yinlarni muntazam ravishda ishiab chiqilgan dastur asosida o'tkazdik. O'tkazilgan harakatli o'yinlar doimo pedagog nazorati ostida bo'ldi. Nazorat guruhida harakatli o'yinlar oldin qanday bo'lsa shundayligicha o'tkazildi.

O'quvchilarni jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi bo'yicha antropometrik ko'rsatkich va testlar qabul qildik. Olingan natijalar 1-va2-jadvallarda ko'rsatilgan.

7-8 yoshli o'g'il va qiz bolalarning jismoniy rivojlanishlarini o'rganish bo'yicha tajriba va nazorat guruhidagi bolalardan olingan antropometrik ko'rsatkich natijalari 1 – jadvalda keltirilgan.

7-8 yoshli o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi

1 - jadval

Antropometrik ko'rsatkichlar	jinsi	Tajriba maktabi			Nazorat maktabi			
		II	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	II	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	
			M	M		M	M	
1 Gavda uzunligi(sm)	O'	17	127.9	131.5	16	128.7	132.0	
	Q	15	127.7	131.5	17	126.8	129.3	
2 Gavda og'irligi (kg)	O'	17	26.0	28.2	16	26.7	29.0	
	Q	15	27.9	30.2	17	28.1	30.5	
3 Ko'krak qafasining kengligi (tinch holatda) (sm)	O'	17	58.0	61.2	16	58.4	61.5	
	Q	15	58.5	61.9	17	58.9	62.3	
4 O'pkaning tiriklik sig'imi (ml)	O'	17	1500	1550	16	1475	1515	
	Q	15	1440	1505	17	1460	1510	
5 Qo'l (barmoqlar) kuchi (kg)	o'ng	O'	17	13.0	14.9	16	13.1	14.4
		Q	15	12.8	14.4	17	12.0	13.4
	chap	O'	17	12.4	13.7	16	12.5	13.6
		Q	15	11.5	12.7	17	11.3	12.3

Yigilgan ma'lumotlardan ayon bo'ldiki, gavda uzunligi bo'yicha olingan antropometrik ko'rsatkichlarda tajriba guruhi o'g'il – qizlari 3,6- 3,8 sm. ga, nazorat guruhidagi tengdoshlari esa 3,3 – 3,5 sm. ga o'sgan.

Gavda og'irligi tajriba guruhi bolalarida 2,2 – 2,3 kg. ga, nazorat guruhidagi tengdoshlarida 2,4 – 2,5 kg. ga ortgan.

Ko'krak qafasining kengligi tinch holatda tajriba guruhidagi o'g'il va qizlarda 3,2 – 3,4 sm. ga, nazorat guruhidagi tengdoshlarida 3,1 – 3,4 sm. ga kengaygan.

O'pkaning tiriklik sig'imi tajriba guruhi o'g'il qizlarida 50 – 65 ml. ga, nazorat guruhi o'g'il va qizlarida 40– 50 ml. ga ortgan.

Qo'l kuchi ko'rsatkichida o'ng qo'l tajriba guruhi o'g'il va qizlarida 1,9 - 1,6 kg, nazorat guruhi o'g'il va qizlarida 1,3 - 1,4 kg, chap qo'l tajriba guruhi bolalarida 1,3 – 1,2 kg, nazorat guruhidagi tengdoshlarida esa 1,1 – 1,0 kg qo'shilgan.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha olingan antropometrik ko'rsatkichlarni taxlillaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi bolalari barcha ko'rsatkichlarda nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan bir oz yaxshiroq natijalarga erishganlari ma'lum bo'ldi.

7-8 yoshli o'g'il va qiz bolalarining jismoniy tayyorgarligini o'rganish maqsadida tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilardan testlar qabul qildik. Olingan testlar 2 – jadvalda keltirilgan.

O'tkazilgan tajriba natijalari ko'rsatishicha 30 m. ga yugurishda tajriba guruhi o'g'il va qizlari 1,3 – 1,2 soniyaga, nazorat guruhidagi tengdoshlari esa 0,9 – 0,8 soniyaga natijalari yaxshilangan.

4x10 m.ga mokkisimon yugurishda tajriba guruhi bolalarida 1,4 – 1,2 soniyaga, nazorat guruhidagi tengdoshlarida 1,0 – 1,1 soniyaga natijalar yaxshilandi.

Turgan joyidan uzunlikka sakrashda tajriba guruhi o'g'il va qizlari 24,5 – 20,3 sm. ga, nazorat guruhidagi tengdoshlari 17,6 – 15,7 sm. ga uzoqlikka sakrashgan.

O'tirgan holatda tizzalarni bukmasdan oldinga engashishda tajriba guruhi o'quvchilari 2,9 – 3,7 sm. ga, nazorat guruhidagi tengdoshlari 2,2 – 2,7 sm. ga natijalari yaxshilanganligi aniqlandi.

Bir daqiqa davomida gavdani bukib-yozishda tajriba guruhi o'g'il va qiz bolalari 3,6 – 2,8 marta, nazorat guruhidagi tengqurlari esa 2,3 – 2,2 marta bajarishdi.

7-8 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi

2-jadval

	Testlar	jinsi	Tajriba maktabi			Nazorat maktabi		
			II	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	II	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin
				M	M		M	M
1	30 m ga yugurish (soniya)	O'	17	7,8	6,5	16	7,6	6,7
		Q	15	7,9	6,7	17	8,0	7,2
2	4x10 m ga mokkisimon yugurish(soniya)	O'	17	13,8	12,4	16	13,6	12,6
		Q	15	13,9	12,7	17	13,7	12,6
3	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm)	O'	17	115,5	140,0	16	121,0	138,6
		Q	15	108,6	128,9	17	113,0	128,7
4	O'tirgan holatda tizzalarni bukmasdan oldinga engashish (sm)	O'	17	3,7	6,6	16	3,6	5,8
		Q	15	3,9	7,6	17	3,8	6,5
5	Bir daqiqa davomida gavdani bukib yozish (marta)	O'	17	19,0	22,6	16	20,0	22,3
		Q	15	19,4	22,2	17	18,1	20,3

O'quv yili mobaynida 7-8 yoshli o'quvchilar bilan olib borilgan tajriba ishlarini taxlilidan ma'lum bo'ldiki, jismoniy rivojlanish bo'yicha olingan testlar bo'yicha tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilarning natijalarini o'zaro taqqoslanganimizda tajriba guruhidagilar yaxshi natijalarga erishganligi ma'lum bo'ldi.

7-8 yoshli o'quvchilar bilan o'quv yili mobaynida o'tkazilgan tajriba ishlaridan hulosalar qilish mumkinki, bolalarning pedagogik hususiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga oigan hoida, dastur asosida muntazam ravishda o'quvchilar bilan harakatli o'yinlarni o'tkazish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент, 2015. 5 сентябр.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2020. 24 январь, ПФ-5924- сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2022. 22 январь, ПФ-60-сон.
4. Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис... пед. фан. ном. – Тошкент: 2010. – 157 б.
5. Салимов Ғ.М. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида 7-10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги. Дисс... пед. фан. ном. – Тошкент: 2007. – 146 б.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI EMOTSIYALARNI ANIQLASHDA YONDASHUVLAR TAHLILI

Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna

Qo'qon davlat pedagogika instituti "Amaliy psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi.

Gmail: dyulchiboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni emotsiyasini baholash rolini, emotsiyalarni yorqin namoyon bo'ladigan sub'yektiv ko'rinishga ega bo'lgan va inson his qilishning, xavotirlanishining barcha turini, emotsiyalarni xulq-atvor bilan bog'lanishini, emotsiyalar uchun xos bo'lgan belgilarni psixolog olimlar tomonidan o'rganilganligi ularning eksperimental taxlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: emotsiya, hayajon, xavotir, evolyutsiya, his-kechinma, emotsional ton, kayfiyat, affekt, ehtiyoj, motivatsiya.

АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ИДЕНТИФИКАЦИИ ЭМОЦИЙ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Юлчибоева Дилфуза Эргашевна

преподаватель кафедры «Прикладная психология» Коканского государственного педагогического института.

Электронная почта: dyulchiboyeva@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается роль оценки эмоций дошкольников, субъективное проявление эмоций, ярко проявляющееся и все виды чувств человека, тревожность, связь эмоций с поведением, особенности эмоций, которые признаки изучались психологами представлен их экспериментальный анализ.

Ключевые слова: эмоция, волнение, тревога, эволюция, ощущение, эмоциональный тон, настроение, аффект, потребность, мотивация.

ANALYSIS OF APPROACHES TO THE IDENTIFICATION OF EMOTIONS IN PRESCHOOL CHILDREN

Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna



46	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning ahamiyati Sodiqova G.G'	598
47	Maktab o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlanishining psixologik aspektlari Saliyeva D. A., Niyetbayeva G. B.....	602
48	Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi Sultonova F. U.	611
49	Axborotlashgan ta'lim tizimida elektron resurslarni qo'llashdagi imkoniyatlar samaradorligi To'rayeva D. I.	617
50	Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish Turdimurodov B. Q.	621
51	Raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lg'usi pedagoglarning o'zini o'zi rivojlantirish shakllari Sharofutdinov I.U.	627
52	Решение задач по теории графов - как средство повышения математической культуры Умматова М. А, Мадрахимова М. А.	631
53	Совершенствование преподавания биофизики на основе информационных технологий Усманов С. А, Мелибаева Ф. М.	635
54	Oliy ta'lim muassasasi faoliyati va akademik erkinlik Xudayberganov Sh. Sh.	641
55	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini shakllantirishning samaradorligini oshirish Xudoyqulova Sh.M.	646
56	Samarali o'qish uchun smart texnologiya Xurramov A. J.	650
57	Axborotlashgan ta'lim tizimida elektron resurslarni qo'llashdagi imkoniyatlar samaradorligi To'rayeva D. I.	655
58	Yosh avlodni tarbiyalashda harakatli o'yinlar Ismoilov T., Saribayev Sh., Tuxtaboyeva B.	660
59	Maktabgacha yoshdagi bolalarni emotsiyalarni aniqlashda yondashuvlar tahlili Yulchiboyeva D. E.	664
60	Jaxon tilshunosligida frazeologiyaning o'rganilishi Maxamadaliyeva Z. B.	670
61	Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning amaliyotdagi xolati G'ofurov A. U.	675